

Science Uzbekistan

INTERNATIONAL CONGRESS ON MODERN SCIENCES-IV

"Global Prospects for Multidisciplinary Research and Education"

CHIRCHIK STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY

April 08-10, 2025 / Chirchik, Uzbekistan



CHDPU
CHIRCHIQ DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



UPI

The
Education
University



Excellence in
Learning Innovation



PROCEEDINGS BOOK

Volume-2

Editors

Prof. Dr. Jabbor Usarov

Prof. Dr. Dostnazar Khimmataliev

Mutabar Meylieva

Kibrio Burieva

ISBN: 979-8-89695-061-5



PROCEEDINGS BOOK

Volume-2

Science Uzbekistan INTERNATIONAL CONGRESS ON MODERN SCIENCES-IV

"GLOBAL PROSPECTS FOR MULTIDISCIPLINARY RESEARCH AND EDUCATION"

CHIRCHIK STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY

April 08-10, 2025 / Chirchik, Uzbekistan

Based on Order No. 490 of the Minister of Higher Education, Science and Innovation dated
December 27, 2024

Editors

Prof. Dr. Jabbor Usarov
Prof. Dr. Dostnazar Khimmataliev
Mutabar Meylieva
Kibrio Burieva

30.04.2025

by Liberty Academic Publishers, New York, USA
ALL RIGHTS RESERVED NO PART OF THIS BOOK MAY BE REPRODUCED IN ANY FORM, BY
PHOTOCOPYING OR BY ANY ELECTRONIC OR MECHANICAL MEANS, INCLUDING
INFORMATION STORAGE OR RETRIEVAL SYSTEMS, WITHOUT PERMISSION IN WRITING
FROM BOTH THE COPYRIGHT OWNER AND THE PUBLISHER OF THIS BOOK.

© Liberty Academic Publishers 2025

The digital PDF version of this title is available Open Access and distributed under the terms of the
Creative Commons Attribution-Non Commercial 4.0 license (<http://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/>) which permits adaptation, alteration, reproduction and distribution for
noncommercial use, without further permission provided the original work is attributed. The
derivative works do not need to be licensed on the same terms.

adopted by Mariam Rasulan

ISBN: 979-8-89695-061-5

CONTENT

CONGRESS ID	1
SCIENTIFIC COMMITTEE	2
PHOTO GALLERY	3
PROGRAM	4
CONTENT	5

PROCEEDINGS BOOK

X.A.Kadirova TEACHING STUDENTS USING NEUROTECHNOLOGIES	1
Ikrom Qodirov PEDAGOGIK PROGNOZLASHNING JAMIYAT RIVOJIDAGI AHAMIYATI	5
Химматалиев Дўстназар Омонович, Султанова Дилнура Абдурашидовна, Ахмедова Мухлиса ЗАМОНАВИЙ ЎҚИТУВЧИ ИМИДЖИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МЕХАНИЗМЛАРИ	9
Qaynarova Iqbol Valiyevna, Murodova Gulnora Ergash qizi, Erkaboyeva Durdona Alijon qizi O'QUVCHILARINING KOGNITIV FAOLLIGINI OSHIRISHDA EVRISTIK TA'LIM VA IJODKORLIK	14
G.S.Xaldarchayeva KREATIV FIKRLASHNI O'RGATISH VA UNING METODOLOGIK HUSUSIYATLARI	20
Saidazimova Saidakhon Abduvoxidovna PROBLEMS OF DEVELOPING STUDENTS' CREATIVE ABILITIES IN THE PROCESS OF HIGHER EDUCATION	25
Tursunboyeva Xandona Sobirjon qizi JADID MA'RIFATPARVARI ABDULLA AVLONIYNING PEDAGOGIK MEROSINI O'RGANISH - IJTIMOIIY PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA	31
G.S.Xaldarchayeva KREATIV FIKRLASHNI O'RGATISH VA UNING METODOLOGIK HUSUSIYATLARI	37
Rustamboyeva Dilafruz, Sulaymonova Nozima, Bashanova Tamara, Shaniyazova Nargiza OILADA TARBIYA TIPLARI	42
Rasulov Akbar Nomozovich, Shamsitdinova Begzoda Mardonbek qizi PEDAGOGIK FAOLIYATDA TA'LIM KLASTERI VA UNING AFZALLIKLARI	47
Olimova Nodirabegim Ibrohimjon qizi THEORETICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE SIGN LANGUAGE TEACHERS	54

JADID MA'RIFATPARVARI ABDULLA AVLONIYNING PEDAGOGIK MEROSINI O'RGANISH - IJTIMOIIY PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA.

Tursunboyeva Xandona Sobirjon qizi

Toshkent davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

<https://orcid.org/0009-0009-1445-3100>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada jadid ma'rifatparvarlarining ilm-fan va ma'rifat yo'lida olib borgan say-harakatlari, milliy istiqlool yo'lida amalga oshirgan faoliyatlari haqida ma'lumotlar keltiriladi. Jadid ma'rifatparvarlarining ta'limiy -tarbiyaviy g'oyalarining yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati va bugungi kunga tatbiq etilishi muhim bo'lgan o'rinlar haqida so'z yuritiladi. Bizga ma'lumki, O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, har tomonlama taraqqiy topib borayotgan jamiyatimiz ma'naviyatini yanada rivojlantirishda millatimiz tarixini o'zida badiiy aks ettirgan tarixiy, badiiy hamda ilmiy asarlarni alohida o'rganishga e'tibor qaratila boshlandi. Shu o'rinda aytish joizki, 2017-yilning 3-avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev mamlakatimiz ijodkor ziyolilari vakillari bilan o'tkazgan uchrashuvlarida: "Biz uchun hech qachon kun tartibidan tushmaydigan yana bir o'ta muhim masala borki, unga alohida to'xtalib o'tish zarur deb bilaman, u ham bo'lsa, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimiz, farzandlarimiz tarbiyasi bilan bog'liq [1] Shu ma'noda Abdulla Avloniyning ta'lim-tarbiya sohasidagi pedagogik qarashlari o'zbek xalqining ruhiyati, turmush tarzi, milliy qadriyatlari bilan chambarchas bog'langanligi adibning boy pedagogik merosi ta'lim-tarbiya masalalarini rivojlantirish, uni o'quvchilarning qalbida shakllantirishda axloqiy va ma'naviy barkamol yoshlarni tarbiyalashdagi milliy maktab hamda qimmatbaho manba bo'lib xizmat qilganini o'rganib chiqish davr talabiga aylanib kelmoqda Buyuk ma'rifatparvar Abdulla Avloniy aytganidek, bu masala biz uchun haqiqatan yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir va o'z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan, ta'bir joiz bo'lsa, masalalarning masalasidir" [2] deya bugungi kun yoshlarini ta'lim-tarbiyasida ahamiyatli bo'lish joiz bo'lgan ko'plab tomonlar mavjudligi, tarixni anglash, adabiyotga mehr berish, kitobxonlar safini yanada kengaytirish, jamiyatda o'qituvchi-pedagog maqomini yanada yuksaltirish borasida fikrlar bildirganlar. Tarixdan shu ma'lumki, zaminimiz allomalar yurti Milliy o'zlikni shakllantiradigan uchlik – o'tmish, bugun va kelajak hamma davrlarda ham zamonning ziyolilari, xalqning kelajagi uchun qayg'uradigan fidoyilarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Ayni kunda ham ushbu haqiqatni yanada teran anglash, yangi rivojlanish bosqichida milliy boy tajribadan samarali foydalanish masalasiga davlat darajasida katta ahamiyat qaratilib kelinmoqda.

Kalit so'zlar. Jadidchilik, ma'rifatparvarlar, ta'lim-tarbiya, nashriyot, qadriyat, musulmon jamiyati, jadidchilik harakati, teatr, ilmiy meros, milliy o'zlik, pedagogiya, ma'rifatparvar, ta'limiy g'oya, pedagogik odob, ilm, fazilat, xalq, fidoyi, eski usul maktabi, ma'naviyat, madaniyat.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются действия джадидских просветителей в области науки и образования, а также их деятельность на пути национальной независимости. Приводится информация о важности образовательных и воспитательных идей джадидских просветителей для воспитания молодежи и их актуальности в современной педагогической практике. Известно, что после обретения независимости Узбекистаном, в стране было уделено особое внимание исследованию исторических, художественных и научных произведений, которые отражают историю нашего народа и служат важными источниками для духовного развития общества. В

связи с этим, 3 августа 2017 года на встречах с творческими интеллигентами страны Президент Республики Узбекистан Шавкат Миромонович Мирзиёев подчеркнул важность воспитания подрастающего поколения. В этом контексте он отметил, что педагогические взгляды Абдуллы Авлония в сфере образования и воспитания тесно связаны с духом, образом жизни и национальными ценностями узбекского народа. Наследие великого просветителя Авлония стало важным источником для развития образования и воспитания, формирования моральных и духовных качеств у молодежи и внесло неоценимый вклад в создание национальной школы. Как сказал сам Абдулла Авлоний, «эта проблема для нас либо путь к спасению, либо к гибели, либо к счастью, либо к несчастью, и она всегда будет оставаться актуальной, являясь важнейшей из всех проблем». В статье также подчеркивается, что в сегодняшнем воспитании молодежи необходимо уделить внимание вопросам понимания истории, развития интереса к литературе, расширению числа читателей, а также повышению статуса учителя и педагога в обществе. История показывает, что наша земля была родиной выдающихся ученых, которые всегда занимались развитием национальной идентичности, объединяя в себе прошлое, настоящее и будущее, оставаясь на переднем плане в борьбе за будущее народа. На сегодняшний день эта истина продолжает оставаться актуальной, и на государственном уровне большое внимание уделяется эффективному использованию национального опыта на новом этапе развития

Ключевые слова. Джадидизм, интеллигенция, образование и воспитание, издательское дело, ценности, мусульманское общество, джадидистское движение, театр, научное наследие, национальная идентичность, педагогика, просвещение, образовательные идеи, педагогическая этика, наука, добродетели, народ, самоотверженность, старые школы, духовность, культура.

ABSTRACT

This article provides information about the actions of Jadid intellectuals in the fields of science and education, as well as their contributions to the national independence movement. It discusses the significance of the educational and pedagogical ideas of Jadid intellectuals in the upbringing of youth and their application in contemporary times. It is known that after Uzbekistan achieved independence, special attention was given to the study of historical, artistic, and scientific works that reflect the history of our nation, which further contributes to the spiritual development of our society. In this context, it is worth mentioning that on August 3, 2017, in meetings with creative intellectuals of the country, President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev emphasized: "For us, there is another highly important issue that never leaves the agenda, and I believe it is necessary to focus on it separately — this is the upbringing of the growing generation, our children." In this regard, the pedagogical views of Abdullah Avloni in the field of education and upbringing are closely connected with the spirit, way of life, and national values of the Uzbek people. The rich pedagogical legacy of the writer has served as a valuable source for developing educational and upbringing matters, for fostering moral and spiritually well-rounded youth, and for establishing a national school. As the great intellectual Abdullah Avloni once said, "This issue is truly one of salvation or doom, happiness or misery for us, and it is an issue that will never lose its relevance, in fact, it is the issue of all issues." The article also highlights the importance of understanding history, fostering a love for literature, expanding the ranks of readers, and raising the status of teachers and educators in society in the upbringing of today's youth. History shows that our land has been the home of great scholars who have always been at the center of attention, concerned about the future of the people, and engaged in addressing the challenges of the past, present, and future. Today, this truth remains relevant, and at the state level, great importance is attached to the effective use of national experience in the new stage of development.

Keywords: Jadidism, intellectuals, education and upbringing, publishing, values, Muslim society, Jadid movement, theater, scientific heritage, national identity, pedagogy, enlightenment, educational ideas, pedagogical ethics, science, virtues, people, selfless, old-style schools, spirituality, culture.

Jadidchilik harakatining yetakchi a'zolaridan biri Abdulla Avloniy, O'zbekistonda ilm-fan, ta'lim va milliy istiqloq yo'lida olib borgan faoliyati bilan ajralib turadi. Uning hayoti va ijodi nafaqat o'zbek ta'limining rivojlanishiga, balki jamiyatimizning ma'naviy barkamolligi va madaniyatining shakllanishiga ham katta ta'sir ko'rsatgan. A.Avloniy o'zining pedagogik qarashlari, o'qituvchilarga bo'lgan yuksak hurmati va yosh avlodni tarbiyalashdagi fidoyiligi bilan barchaga namuna bo'lgan. Jadidchilik harakati XIX asrning oxiridan XX asrning boshlariga qadar musulmon sharqida keng tarqalgan bo'lib, bu harakatning asosiy maqsadi – zamonaviy ta'lim tizimini yaratish, milliy qadriyatlarni saqlab qolish hamda o'zbek xalqining bilim va ma'naviyatini yangi zamon talablariga moslashtirish edi. Jadidchilik harakatining ta'lim tizimidagi yangiligi nafaqat o'quv dasturlarining modernizatsiyasida, balki o'qitish usullarining takomillashuvida ham namoyon bo'ldi. Shu bilan birga, harakatning maqsadlaridan biri musulmon jamiyatida ilm-fan va ijtimoiy o'zgarishlarni amalga oshirish edi [3]. Abdulla Avloniy, jadidchilik harakatining ajralmas qismi sifatida, o'z ta'limiy g'oyalari bilan o'zbek milliy ta'limining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan, uning pedagogik qarashlari zamonaviy ta'lim tizimining asosiy prinsiplari – ilm-fanning o'rni, milliy qadriyatlar va ijtimoiy adolatni o'zida aks ettirgan. Avloniy ta'limni faqat bilim olish jarayoni sifatida emas, balki tarbiyalashning asosiy vositasi sifatida ko'rdi. U yoshlarni nafaqat ilmga, balki axloqiy qadriyatlar va insoniy fazilatlarini rivojlantirishga ham undagan edi. [4] Abdulla Avloniyning pedagogik merosi shundaki, u o'quvchilarni faqat ilm olishga emas, balki milliy madaniyatni o'zlashtirishga, jamiyatda o'z o'rnini topishga ham tayyorladi. Avloniy o'zining asosiy g'oyalarini nafaqat ta'lim jarayonlariga, balki milliy ma'naviyatni rivojlantirishga ham yo'naltirdi, uning pedagogik g'oyalari zamonaviy ta'lim tizimida hali ham dolzarb bo'lib qolmoqda [5]. Abdulla Avloniyning o'z jadidchilik harakatida nihoyatda muhimdir, u nafaqat ta'lim tizimini yangilashni maqsad qilib qo'ymagan, balki milliy ma'naviyatni mustahkamlash, xalqni ilmga oshno qilishni ham o'z faoliyatining asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilagan. Uning pedagogik qarashlari bugungi kundagi o'quv dasturlarida va o'quvchi tarbiyasida muhim o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning: "Xususan, milliy o'zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz lozim. Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz avliyolarimizning bebaho merosi, yengilmas sarkarda va arboblarning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratishimiz kerak"ligi haqidagi fikrlari buning yorqin isbotidir. O'zbek pedagogikasining rivojlanishiga munosib hissa qo'shgan taniqli ma'rifatparvar adib Abdulla Avloniy pedagogik fikr taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan, o'z asarlarida o'zbek xalqining eng yaxshi an'analari, ta'lim-tarbiyaga oid muhim hayotiy masalani aks ettirgan pedagog va olimdir. [6] Avloniy o'zining pedagogik merosi orqali nafaqat o'quvchilarni ilmga yo'naltiribgina qolmay, balki ular orasida milliy g'urur, madaniyatga hurmat, o'z xalqi va vatani uchun mas'uliyatni rivojlantirishga ham erishgan edi. Uning qarashlari nafaqat ilm-fan, balki milliy istiqloq g'oyalarini rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydi.

Abdulla Avloniy birinchi marta pedagogikaga "Pedagogiya", ya'ni "bola tarbiyasi fani" dir, [7] deya ta'rif beradi. Bunday ta'rif albatta, Abdulla Avloniyning pedagogika fanini yaxshi bilganligidan dalolat beradi. Abdulla Avloniy pedagog sifatida bola tarbiyasining roli haqida fikr yuritib "Agar bir kishi yoshligida nafs buzilib, tarbiyasiz, axloqsiz bo'lib o'sdimi, allohu akbar, bunday kishilardan yaxshilik kutmoq yerdan turub yulduzlarga qo'l uzatmak kabi dur", [8] deydi. Uning fikricha, bolalarda axloqiy xislatlarning tarkib topishida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va bolaning atrofidagi kishilar g'oyat katta ahamiyatga ega. "Turkiy Guliston yoxud axloq" kitobi ma'rifatparvarlik g'oyalarini targ'ib qiladi.

Abdulla Avloniy kitobda ilm to'g'risida bunday deydi: "Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g'oyat oliy, muqaddas bir fazilatdur. Zeroki, ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatimizni oyina kabi ko'rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkur qilmoq ...Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidur..."[8] Avloniy ilmni umuman emas, balki uning amaliy va hayotiy foydalarini keltirib: "Bizlarni jaholat, qorong'ilikdan qutqarur. Madaniyat insoniyatni ma'rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe'llardan, buzug' ishlardan qaytarur, yaxshi xulq va odob sohibi qilur... Alhosil butun hayotimiz, salomatligimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g'ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ila bog'liqdur". Adibning obrazli ifodasiga ko'ra, ilm bamisoli bodomning ichidagi mag'iz. Uni qo'lga kiritish uchun mehnat qilish, ya'ni chaqib uni po'chog'idan ajratib olish kerak bo'ladi. U ilmning jamiyat taraqqiyotidagi rolini yaxshi tushunadi. Shuning uchun ham u yoshlarni ilm sirlarini bilishga, hodisalar mohiyatini yechishga, kitob mutolaa qilishga chaqiradi. Uning fikricha, ilm agar jamiyat manfaatiga xizmat qilmasa, xalq farovonligi yo'lida qo'llanilmasa, u o'likdir"- deya ta'rif beradi.

O'zbek adabiyotshunosligining taniqli ma'rifatparvar adibi, ijodkor mutafakkir olimi Abdulla Avloniy bolalar adabiyotiga qo'shgan hissasi haqida R.Barakayev tomonidan "O'zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi" nomli monografiyasi chop etilgan bo'lib, unda olim taniqli adib A.Avloniyning bolalar adabiyotini yuksaltirish uchun chekkan zahmatlarini, tortgan azobu uqubatlarini birma-bir keltirib o'tadi.[10] B.Qosimov esa U.Dolimov bilan hamkorlikda mutafakkir adibning hayoti va ilmiy faoliyatiga oid "Sharaflil hayot" asarini yozadi [11].

Abdulla Avloniyning ta'lim-tarbiyaga oid bo'lgan asarlarida yoshlarni vatanparvarlik, milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashning pedagogik talqini bayon etilgan S.Nishonova, O.Musurmonova, U.Mahkamov kabi ko'plab olimlarning ilmiy tadqiqotlari shu jihatdan ham e'tiborga loyiqdir. Abdulla Avloniyning ta'lim-tarbiya sohasidagi qarashlari o'zbek xalqining ruhiyati, turmush tarzi, milliy qadriyatlari bilan chambarchas bog'lan bo'lib, uning boy pedagogik merosi milliy maktab, milliy pedagogikani rivojlantirishda qimmatbaho manba bo'lib xizmat qiladi. Shu ma'noda Avloniyning siymosi, faoliyati biz uchun qadrlidir. Mashhur o'zbek ma'rifatparvari, shoiri va jamoat arbobi Abdulla Avloniy 1878-yil 12-iyulda Toshkent shahrining "Mergancha" mahallasida, mayda hunarmand-to'quvchi oilasida dunyoga kelgan. Ota-onasi savodli kishilar bo'lgan. Abdulla Avloniy eski usul maktabini tamomlagandan so'ng 12 yoshida madrasaga o'qishga kiradi. U yozda ishlab, ota-onasiga yordam qilar, boshqa vaqtlarda esa ta'lim olar edi. Oiladagi moddiy qiyinchiliklar sababli bolaligidan odamlarning eshigida mehnat qiladi: g'isht quyish, suvoqchilik, pechkachilik, duradgorlik, binokorlik kabi kasblar bilan shug'ullangan, "Imoratchi usta" degan nomni ham oladi. Abdulla Avloniy o'z tarjimaiy holida yozishicha: "1885 yildan boshlang'ich maktabda o'qidim. O'qchi mahallada Akromxon domladan xat-savodim chiqdi. 1890-yilda maktabni bitirib, mahalladagi madrasada dars o'qib boshladim. Yoshim 13 ga yetganda, yo'qsullik menga ta'sir qildimi, yoz kunlarida mardikorlik qilib, ota-onamga biroz yordamda bo'lib, qish kunlarida o'qir edim. So'ngra O'qchi mahalladagi domlamizning kam havsalaligidan, o'quvda davomsizligidan O'qchi madrasasini tark etib, 14 yoshimda Shayxantavurdagi Abdulmalikboy dahasiga kelib, Mullo Umar Oxunddan dars o'rgana boshladim. Bu chog'larda ham qish kunlarida o'qib, yoz kunlarida mardikorlikka ishlamoqqa majbur edim". O'ta iqtidorli bo'lgan Abdulla Avloniy 15 yoshida she'rlar yoza boshlaydi. U 1894-yildan boshlab she'rlar yozishga kirishgan bo'lsa-da, yoshlik davrida yozgan she'rlari bizgacha saqlanib kelmagan. Dastlabki she'rlarida hamda "Hijron" degan maqolasida xalqni yangi usul maktablarida o'qib-o'rganishga targ'ib qildi. Abdulla Avloniy 1907-yilda "Shuhrat", "Osiyo" nomli yangi gazetalari chiqara boshlaydi, lekin chor amaldorlari tez orada gazetalarni yoptirib qo'yadi. Abdulla Avloniy keyinroq "Sadoyi Turkiston" (1914-1915), "Turon" (1917), "Ishtirokiyun" (1918) gazetalarida, keyinchalik "Kasabachilik harakati" (1921) jurnalida muharrir bo'lib ishlaydi. Shundan so'ng, adib o'zbek matbuotining zabardast vakili, asoschilaridan biri sifatida tanila boshlaydi. Jadidchilik harakati rahbarlaridan biri bo'lgan Abdulla Avloniy 1904-yilda Toshkentning Mirobod mahallasida jadidlar maktabini, 1909-yilda "Jamiyati

xayriya” uyushmasini tashkil etadi. 1905-1917-yillarda matbuotdagi qizg’in faoliyati, ko‘plab publisistik maqolalari bilan “bir tomondan milliy islohot uchun mafkura hozirlag‘on, ikkinchi tomondan el orasiga o‘zgarish ma‘rifatini sochg‘on” ham Abdulla Avloniy bo‘ladi. Abdulla Avloniy o‘zi nashr etgan “Shuhrat” (1907) nomli gazeta faoliyatida shunday baholanadi: U Turkistonda birinchilardan bo‘lib maktabga geografiya, kimyo, xandasa, fizika fanlarini kiritilishiga ta‘sir ko‘rsatdi, ta‘limni real turmush bilan bog‘lashga intildi, bir dars bilan boshqasi o‘rtasida muayyan tanaffusni, bir sinfdan ikkinchisiga o‘tishdagi imtihonlarni joriy qildi, ta‘lim tizimining dunyoviy yo‘nalishini kuchaytirishga alohida e‘tibor qaratdi.[12] A.Avloniyning “Birinci muallim” (“Muallimi avval”, 1909), “Ikkinchi muallim” (“Muallimi soniy”, 1912) nomli darsliklari, “Turkiy Guliston yoxud axloq” (1913), “Gulistoni maktab” (1917), “Adabiyot yoxud milliy she‘rlar” (1909-1916, 6 qism) kabi qo‘llanmalari hamda darsliklari maktablarda o‘qitilgan. Abdulla Avloniy “Turon” (1917) gazetasiga “Yashasin xalq jumhuriyati” degan shiorini tanlab, “Turon” nomli teatr to‘garagini tashkil etib, iqtidorli yoshlarni to‘playdi, ayrim rollarni ijro etishda o‘zi ham qatnashadi. Shoir Afg‘onistonda elchi bo‘ldi, turli o‘quv yurtlarida dars berdi. Abdulla Avloniy o‘zbek ziyolilari ichida birinchilardan bo‘lib, o‘zbek xalq teatrini professional teatrga aylantirish uchun 1913-yilda “Turon” nomi bilan teatr ochadi.

Abdulla Avloniy yosh avlod tarbiyasi, madaniyati hamda ma‘rifati haqida teran fikr yuritgan va bu narsani har asari tarkibiga singdirgan. Asarlarining tub mohiyatining mazmuni ham ana shu yosh avlod ta‘lim- tarbiyasi, ayniqsa xotin –qizlarning ilm- marifatli bo‘lishi bosh maqsad qilib qo‘yilgan. Davlatimizning bosh islohotlarida ham asosiy masala yosh avlod ta‘lim-tarbiyasiga qaratilgan. Chunki yoshlar kelajagimizning ertalari hisoblanadi. Davlatimiz rahbarining ham alohida ishonch va tashabbus bilan yosh avlodga juda katta shart-sharoit va imkoniyatlar eshigini ochib berayotganligini ko‘rish mumkin. Yurtboshimizning “Ortimizda, tog‘dek tayanch va suyanch bo‘lib turgan ko‘pmillatli xalqimizning hayot yo‘llarida to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatadigan mo‘tabar nuroniylarimiz, mehnatkash, oqila opa-singillarimiz, ilg‘or zamonaviy fikrlaydigan, dunyoda hech kimdan kam bo‘lmagan azm-u shijoatli yoshlarimiz bor” - deya ishonch bilan aytgan so‘zlari har bir O‘zbekiston fuqarosining yurak-yuragiga yetib boradi hamda katta ishonchni o‘zida his qiladi. [13] Shuningdek, adibning qator asarlarida oila va oila tarbiyasida ro‘y beradigan ob‘yektiv va sub‘yektiv omillarning ahamiyati juda katta ekanligi bir necha marta takrorlangan. Oilaning moddiy ta‘minoti va farovonligi (maishiy turmush) darajasi, oila budjetining mavjud holati, undan oqilona foydalanish borasidagi tajriba, sog‘lom ruhiy muhitning barqarorligi hamda obyektiv omillar sanalsa, oiladagi shaxslararo munosabatlar mazmuni, oila a‘zolarining fiziologik, psixologik, madaniy jihatdan komillik darajasi, ularning qiziqish va ehtiyojlari o‘rtasidagi mutanosiblik, oilaviy hayotni tartibga solish borasidagi o‘zaro yordam, hamkorlik, birlik tamoyillariga tayanish subyektiv omillar ekanligi asoslab berilgan. Oila tarbiyasida farzandlarning hayotini to‘g‘ri yuritish ularni vaqtdan to‘g‘ri, unumli foydalanishga, maktab hayotiga o‘rgatish muhim o‘rin tutishi, bunda farzandlar vaqtini o‘yin, mehnat va o‘qish faoliyatlari bo‘yicha to‘g‘ri taqsimlash nihoyatda muhimligi allomaning asarlarida o‘z ifodasini topadi.

XULOSA

Abdulla Avloniy jadidchilik harakatining yetakchi a‘zosi sifatida, milliy ta‘lim va ma‘naviyatni rivojlantirish jarayonida ulkan o‘rin egallaydi. Uning pedagogik g‘oyalari bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib, jamiyatda ta‘lim va tarbiya jarayonlarida muhim o‘rin tutadi. Avloniy o‘zining ilm-fan va ma‘rifat sohasidagi fidoyiligi bilan o‘zbek xalqining tarbiyasi va rivojlanishiga katta hissa qo‘shdi. Uning pedagogik merosi, zamonaviy ta‘lim tizimida o‘rin olgan g‘oyalari, bugungi yoshlarni axloqiy va ma‘naviy jihatdan rivojlantirishda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Bugungi kunda ham Abdulla Avloniyning g‘oyalaridan ta‘lim tizimida va ayniqsa, maktablarda o‘quvchilarning ta‘lim-tarbiya olishlarida dasturi amal sifatida foydalanib kelinmoqda. Abdulla Avloniy ijodiy merosi bugungi kunda ma‘naviy-ma‘rifiy tarbiya g‘oyasining targ‘ibotchisidir. Marifatparvarning asarlarida ilgari surilgan ta‘lim-tarbiyaga oid fikrlar milliy ma‘naviyatimiz rivojlanishida qimmatli bir manba bo‘lib xizmat

qiladi. Bu ulug' adib ijodi, amaliy faoliyati bugungi kun yoshlarimiz uchun ibrat maktabi, deyilsa ham mubolag'a bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. B.S.Abdullayeva (2023), "Abdulla Avloniy ijodiy merosining ilmiy-ma'rifiy qimmati"/"ABDULLA AVLONIY IJODIY MEROSINING ADABIY-ESTETIK VA ILMIY-MA'RIFIY QIMMATI" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari
2. Abdulla Avloniy (2018), Turkiy guliston yohud axloq /Yoshlar nashriyot uyi
3. O. Qosimov, (2000), *Jadidchilik harakati va uning maqsadlari*. Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
4. Akramov, B. (2002), *Jadidchilik va uning ma'naviy merosi*. Toshkent: Navruz
5. N.Rasulov,(2015), *Pedagogika tarixidan jadidchilikni o'rganish*. Toshkent: Milliy universitet nashriyoti.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi (2018)
7. K.A.Abrorxonova (2023), "Abdulla Avloniy asarlarida ilm-ma'rifat va tarbiya masalalari" "ABDULLA AVLONIY IJODIY MEROSINING ADABIY-ESTETIK VA ILMIY-MA'RIFIY QIMMATI" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari
8. Y.I. Kubayeva, (2024), Boshlang'ich sinf o'quvchilarining axloqiy tarbiyasini shakllantirishda mutafakkirlar merosidan foydalanish. *Modern Science and Research*, 3(1), 1–3. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/28099>
9. G.E.Ergasheva (2023), "Yoshlar ma'naviy barqarorligini ta'minlashda Abdulla Avloniyning ma'naviy merosi"/ "ABDULLA AVLONIY IJODIY MEROSINING ADABIY-ESTETIK VA ILMIY-MA'RIFIY QIMMATI" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari
10. R.Barakayev (2004), "*O'zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi*". T., "Fan"
11. B.Qosimov& U.Dolimov (1987), "*Sharafli hayot*". T., G'.G'ulom nashriyoti,
12. N.CH.Rustamov (2023), Abdulla Avloniyning pedagogika fanini rivojiga qo'shgan hissasi
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi (2020)
14. Xalilov, M. (2020). *Abdulla Avloniyning ilmiy va pedagogik merosi*. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Ma'naviyat va ma'rifat markazi
15. SH.M.Mirziyayev (2017), "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" //Toshkent – "O'zbekiston",
16. S.Normamatov (2011). Abdulla Avloniy she'riyati leksikasining ma'noviy-uslubiy xususiyatlari. Filol.fan. nomz. diss.avtoreferati. – Toshkent,